

**MASOFAVIY TEXNIK TA'LIMDA AVTOMATLASHTIRILGAN DIDAKTIK
TA'MINOTNING ARXITEKTURASI VA FUNKSIONAL MODEL****Kuzibekov Sardor Komilovich***Guliston davlat universiteti**Oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasida dotsenti***Uzaydullayev Akmaljon Olimovich***Guliston davlat universiteti**Oziq-ovqat texnologiyasi kafedrasida dotsenti***Usmanov Toyir Juraqul o'g'li***Guliston davlat universiteti**Oziq-ovqat texnologiyalari kafedrasida magistri*uzaydullayevakmal@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnika yo'nalishida masofaviy ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish uchun avtomatlashtirilgan didaktik ta'minot tizimining umumiy tuzilishi va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini yaratish texnologiyalari, ularning texnik ta'lim jarayonidagi o'rni, asosiy vazifalari va amaliy qo'llanish yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, texnik fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan avtomatlashtirilgan dasturiy majmualar, o'quv jarayonini modellashtirish, testlash va bilimlarni baholash tizimlarining didaktik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Maqolada texnik ta'limda masofaviy o'qitish vositalarining dolzarbligi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni ta'minlashdagi avtomatlashtirilgan tizimlarning afzalliklari ham yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Masofadan o'qitish, masofaviy ta'lim, texnik ta'lim, didaktik ta'minot, avtomatlashtirilgan tizim, masofaviy o'qitish texnologiyalari, texnik o'qitish platformalari, funksional model.*


KIRISH

Hozirgi davrda texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari va izlanuvchan yoshlar uchun masofaviy ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qitish jarayonlari talabalarga o'z bilimlarini masofadan turib chuqurlashtirish, texnik fanlar bo'yicha yangi adabiyotlar bilan tanishish, hamfikrlar bilan onlayn muloqot qilish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi o'quv jarayonini avtomatlashtirilgan didaktik tizimlar orqali tashkil etish, bu esa talabalarga vaqt va masofadan qat'i nazar sifatli bilim olish sharoitini yaratadi. Ayniqsa, texnika sohasida o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, laboratoriya ishlari, simulyatsiyalar va virtual tajribalar orqali bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Masofaviy o'qitish modeli axborot va fan muhitidan iborat bo'lib, u o'z ichiga o'quv materiallarining turli shakllarini, dasturiy ta'minot tizimlarini hamda talabaning mustaqil faoliyatini boshqarish mexanizmlarini oladi. Avtomatlashtirilgan didaktik tizim esa texnik yo'nalishdagi har bir fan uchun moslashtirilgan o'quv resurslarini yaratish, ularni boshqarish va tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bois, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy vazifasi masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini avtomatlashtirish, uni texnika ta'limi tizimiga integratsiya qilish va o'quvchilarning amaliy hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishdan iboratdir.

Masofaviy ta'limda avtomatlashgan didaktik ta'minot talab etiladi.



1.1-rasm. Avtomatlashgan didaktik tizim tuzilishi

Didaktik ta'minot- aniq fan mazmuni bo'yicha o'quv-uslubiy majmualardan iborat bo'ladi.

Funksional ta'minot - o'quv mazmunini o'rganishni modellashtirish imkonini beradi va **pedagogik** hamda **texnologik** qismlardan iborat bo'ladi.

Pedagogik -pedagogik maqsadga erishish uchun maqsadga va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik uslublar va texnologiyalarni uslubiy ketma-ketligi.

Texnologik - pedagogik maqsadga erishish uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalari ketma-ketligi. Texnologik qismni tuzishda o'qituvchining ishtiroki pedagogik va axborot texnologiyalarini birlashtirish imkonini beradi

Pedagogik imkoniyatlarning ortib borishi natijasida esa o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron dasturiy mahsulotlar, multimedia ilovalaridan foydalanish yo'lga qo'yildi. Axborotning elektron tovush, tasvir, matn ko'rinishlaridan o'quv-tarbiya maqsadini ro'yobga chiqarishda samarali hisoblangan kompyuterli o'qitish metodikasi ta'limga kirib keldi.

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati o'qitish jarayonining barcha bosqichlari, jumladan, yangi o'quv materiallarini tushuntirish, takrorlash, umumlashtirish, talaba (tinglovchi)larning fan bo'yicha erishgan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonlarda kompyuter talaba(tinglovchi) uchun turli vazifalar, xususan, pedagogik, ta'lim vositasi, ta'lim ob'ekti, o'zaro muloqot hamkori kabi funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga bilimlarni baholash va ularning tegishli standart va talablarga mosligi monitoringini tashkil etishdagi afzalliklari uning o'qitish tizimiga keng joriy etilishiga sabab bo'ldi.

Xulosa:Boshqaruv bloki uslubiy ta'minot bo'yicha turli xil nazorat sinovlari uchun mo'ljallanadi. Masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini tashkillashtirish va uslubiy asosalarini

o'rganishda tibbiy xodimlar va ularni malakasini oshirishga qaratilgan bo'lib kerakli adabiyotlar va ular bilan birgalikda ularning umumiy holatdagi bilimlarini o'zaro almashish va bilimlarini nazorat qilish va masofadan turib foydalanishga qulaylik yaratish maqsadida keltirilgan sharoitlaryaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-martdagi "Ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2021.
- 3.UNESCO. *Education: The Hidden Treasure*. Report of the International Commission on Education in the Twenty-first Century, Paris, 1997.
- 4.Fromm, E. *The Sane Society*. New York: Rinehart, 1955.
- 5.Hasanov I., Nazarova M. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: Innovatsiya, 2021.
- 6.Nurmukhamedov, A. A., Jankorazov, A. M., Khazratkulov, J. Z., & Tashmurotov, A. N. (2023). Methods of improving the frying process in the production of vegetable oils.
7. Sattorov, K. K., Hamdamov, M. B., & Tashmurotov, A. N. (2021). Selection and research of new modifications of stationary promoted nickel-copper-aluminum catalysts. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 438-447.
- 8.Tukhtamishova, G. K., Sattorov, K. K., & Nuriddinov, B. R. (2023, June). Post-harvest processing of wheat grain. In *American Institute of Physics Conference Series* (Vol. 2789, No. 1, p. 030009).
9. Suvanova, F., Qobilova, N., & Tukhtamishova, G. (2023). Improvement of solvent recovery technology in oil extraction production. *Science and innovation*, 2(A1), 209-212.
10. Tukhtamishov, S., Xudayberdiyev, R., & Tukhtamishova, G. (2023). MECHANIZED APPARATUS FOR CUTTING MELON FRUIT INTO ANNULAR SLICES. *Science and innovation*, 2(A1), 252-255.
- 11.Turabekova, D. (2024). ANALYSIS OF THE SPREAD OF MICROBIOLOGICAL DISEASES ON GRAPE PLANTS IN THE SYRDARYA REGION. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(7), 21-27.